



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

11 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 11, НОМЕР 1

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 11, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2026

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2026-1>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Fayziev Shoxrud Farmonovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

**Boboyev Halimboy Boboyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Sattorov Abdug'afvor**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Yosuke Shamoto**  
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)  
**Umarxonova Dildora Sharipxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nematov Jo'rabek Nematilloevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

**Malikova Gulchexra**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xusanov Ozod Tillabayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Selimanova Svetlana Mixaylovna**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

**Xvan Leonid Borisovich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Peshkova Xristina Vyacheslavovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**Sung Un Lee**  
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

**Oqyulov Omonboy**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ruziyev Rustam Jabborovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Borotov Mirodiljon Xomudjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Toshev Boboqul Norqobilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Shomuxamedova Zamira Shoislamovna**  
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)  
**Ahmad Issa Altweissi**  
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)  
**Mexmonov Kambarriddin Miradxamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

**Esanova Zamira Normurodovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jason A.**  
Kanton Federal sud markazi (AQSH)  
**Borut Strazisar**  
Yuridik bo'lim boshlig'i (Sloveniya)

12.00.05 - МЕХНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

**Usmanova Muborak Akmalxonovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Gasanov Mixail Yuriyevich**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Sattorova Gulnoza Djurakulovna**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

**Murodova Gulnora**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)  
**Denisov Gleb**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Fayziyev Shuxrat Xasanovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Usmonov Muhammadi Bahridinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Xolmuminov Juma**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Jo'rayev Yuldash Achilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Nurmatov Mirg'olib Mirzayevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Po'latov Baxtiyor Xalilovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Salomov Baxrom Salomovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Osmonaliyev Qayrat**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzayev Aziz**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Aleksey Kibalnik**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Kudryavtsev Vladislav Leonidovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Sergey Shoshin**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)  
**James B.**  
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

**Rustambayev Mirzayusup Hakimovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Zufarov Rustam Axmedovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Kabulov Rustam**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Rajabova Mavjuda Abdullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Taxirov Farhod**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Ismailov Isomiddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li**  
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)  
**Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Djansarayeva Rima Ernatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Yelena Antonyan Aleksandrovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Matthew Light**  
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)  
**Qo'shayev Nurali Mahmudovich**  
yuridik fanlar nomzodi, dotsent (O'zbekiston)

**Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Pulatov Yuriy Safiyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**To'laganova Gulchehra Zaxitovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Mirzov Davron Miragzamovich**  
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)  
**Rijakov Aleksandr Petrovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

**Stoyko Nikolay Genadyevich**  
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)  
**Iskandarov Zayniddin**  
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)  
**Sergey Pen**  
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)  
**Aleksey Purs**  
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)  
**Jurgen Maurer**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)  
**Kevin Curtin**  
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

**Ismoilov Bahodir Islamovich**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

**Yuldasheva Govxerjan**  
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)  
**Alexander Trunk**  
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

**1. Kutpiddinov Xusniddin Muxiddinovich**

ETIM BOLALAR VA OTA-ONA QARAMOG‘IDAN MAHRUM BO‘LGAN BOLALARNI JOYLASHTIRISH SHAKLLARINING HUQUQIY VA INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....5

**2. Авлиякулова Матлуба Авазовна**

КОРПОРАТИВ-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРНИ ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ.....13

**3. Раҳимкулова Лола Улуғмуродовна**

ИШ ТАШЛАШ БИЛАН БОҒЛИҚ МУНОСАБАТ СУБЪЕКТЛАРИНИНГ ҲУҚУҚ ВА МАЖБУРИЯТЛАРИ. ҚОНУНЧИЛИҚДА НАЗАРДА ТУТИЛГАН КАФОЛАТЛАР.....21

**4. Karimova Nigina Botirjon qizi**

YO‘QOLIB KETISH XAVFI OSTIDAGI YOYVOYI FAUNA VA FLORA TURLARINI MUHOFAZA QILISHDA VASHINGTON (CITES) KONVENSIYASINING HUQUQIY ANAMIYATI.....28

**5. Xakberdiyev Nurali Salaxiddinovich**

ICHKI ISHLAR ORGANLARI XODIMLARINING PROFESSIONAL FAOLIYATINI BELGILOVCHI OMILLAR.....35

**6. Turayev Jo‘rabek Shonazarovich**

JORIY SHAROITLARDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING JAMOAT XAVFSIZLIGINI TA‘MINLASH FAOLIYATINING ILMIIY-NAZARIY TAVSIFI.....43

**7. Hojiyev Nosirjon Komilovich**

YO‘L HARAKATI VA TRANSPORT VOSITALARIDAN FOYDALANISH QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JINOIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....50

**8. Рузиев Маъруфжон Муртазаевич**

ЎЗБЕКИСТОНДА ЖИНОИЙ ЖАЗОЛАРНИНГ ЛИБЕРАЛЛАШУВИ – ИНСОН ҲУҚУҚЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ.....58

**9. Orakbayev Erpolat Temirbay ugli**

TERGOV SUDYASI INSTITUTI: SHAKLLANISH TARIXI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....65

**10. Husanboev Sardor Abdukarimovich**

YOSHLAR O‘RTASIDA EKSTREMISTIK TAHDIDLARNING PROFILAKTIK CHORATADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....72

**11. Xolmirzayev Muhsinbek Shavqiddin o‘g‘li**

KRIMINOLOGIK SIGNAL TIZIMI (REAL-TIME ALERTS): SUN‘IY INTELLEKT ASOSIDA JINOYAT XAVFINI OLDINDAN ANIQLASH VA PROFILAKTIKA QILISH MODELII.....82

**12. Курбонов Давлат Равшанович**

ШАХС ОЗОДЛИГИГА ҚАРШИ ЖИНОЯТ СОДИР ЭТГАН ШАХСНИНГ ИЖТИМОИЙ-БИОЛОГИК ТАВСИФИ.....87

borgan olimlar L. Sherman, D. Weisburd, J. Eck va boshqalar “hot spots policing” (jinoyat o‘choqlari) nazariyasini ishlab chiqdilar. Ushbu izlanishlar jinoyatlar tasodifiy emas, balki muayyan joy va vaqtda takrorlanish xususiyatiga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Kriminologik signal tizimi — bu ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish, prognozlash va signal yuborish bosqichlarini o‘z ichiga olgan integratsiyalashgan platformadir. Tizim avtomatik ravishda xavf darajasini baholab, belgilangan chegaradan oshganda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga signal yuboradi [1, B 17].

Tizimda regressiya tahlili, vaqt qatorlari, klasterlash, tasniflash (classification) va neyron tarmoqlar kabi mashinaviy o‘rganish algoritmlaridan foydalaniladi. Ushbu algoritmlar jinoyat xavfining ehtimollik darajasini hisoblab beradi.

AQSh, Buyuk Britaniya, Niderlandiya va Singapurda jinoyatchilikni prognozlash va real-time monitoring tizimlari joriy etilgan. Ularning tahlili shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlar profilaktik choralarni kuchaytirish va resurslarni samarali taqsimlashga xizmat qiladi.

Singapur davlatida “Smart Nation” dasturi amaliyotga joriy etilgan bo‘lib, ushbu dasturiy ta’minot keng qamrovli kameralar, real vaqt tahlillari (real-time analytics), sensor tarmoqlari tomonidan yaratilgan texnologiyalar bilan integratsiya qilingan [2].

Kriminologik signal tizimini joriy etishda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish, diskriminatsiya xavfini oldini olish va algoritmik shaffoflikni ta’minlash muhim ahamiyatga ega. Huquqiy asoslar aniq belgilanishi zarur.

Mamlakatda raqamlashtirish siyosati, “E-jamoat xavfsizligi” tizimlari va statistik bazalarning mavjudligi kriminologik signal tizimini joriy etish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. Tizim jinoyatlarning oldini olish, hududiy xavfni pasaytirish va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini ilmiy asosda boshqarishga xizmat qiladi.

Ushbu tizim adabiyotlarda Real-Time Crime Alert Systems (Real vaqtda jinoyatlar haqida ogohlantirish tizimlari), Crime Early Warning Systems (Jinoyat haqida erta ogohlantirish tizimlari), Real-Time Crime Intelligence (Haqiqiy vaqtda jinoyatlar bo‘yicha razvedka), Spatio-Temporal Crime Alerting (Fazoviy-vaqtinchalik jinoyat haqida ogohlantirish) nomlari bilan uchraydi [3].

AQShda kriminologik signal tizimlarini real vaqt rejimida amalga oshirishda eng rivojlangan modellardan biri **Real-Time Crime Centers** (RTCC) hisoblanadi. Bugungi kunda AQShning 200 dan ortiq shaharlarida, jumladan, New York, Chikago va Los-Angeles kabi yirik megapolislarda RTCC markazlari faoliyat yuritmoqda. Ushbu markazlar politsiya faoliyatini real vaqt rejimida axborot bilan ta’minlashga xizmat qiluvchi kompleks analitik platforma sifatida shakllangan [4].

RTCC tizimlarining asosiy xususiyati shundaki, ular real vaqt rejimida kelib tushayotgan video kuzatuv ma’lumotlari, 911 favqulodda qo‘ng‘iroqlari, patrul xizmatlari joylashuvi va boshqa operativ axborotlarni yagona markazda jamlaydi. Sun‘iy intellekt va mashinaviy o‘rganish algoritmlari yordamida xavfli hududlar aniqlanaydi, jinoyat sodir bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan nuqtalar belgilab olinadi va patrul xodimlariga tezkor ogohlantirishlar (instant alerts) yuboriladi.

Amerikalik kriminolog **J.Ratcliffe** RTCC tizimlarini “jinoyatchilikka qarshi kurashda reaktiv modeldan proaktiv va razvedkaga asoslangan modelga o‘tishning institutsional shakli” sifatida baholaydi. Uning ta’kidlashicha, real vaqt rejimida axborot almashinuvi va avtomatik signal berish mexanizmlari patrul xizmatlarining joylashtirilishini optimallashtiradi va tezkor javob samaradorligini oshiradi [5].

Amaliy tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, RTCC tizimlari jinoyatga javob berish vaqtini o‘rtacha 20–30 foizga qisqartirishga erishgan [6].

Shuningdek, D.Weisburd va L.Sherman kabi olimlar RTCC markazlari “issiq nuqtalar” (hot spots) nazariyasini real vaqt rejimida qo‘llash imkonini berayotganini ta’kidlaydi. Ularning fikricha, real-time alerts jinoyatchilikning hududiy kontsentratsiyasiga tezkor ta’sir ko‘rsatish orqali profilaktik samarani kuchaytiradi [7, B 625-626].

**Buyuk Britaniyada** real-time alerts konsepsiyasi **Live Crime Intelligence** modeli asosida rivojlangan bo‘lib, ayniqsa London Metropolitan Police faoliyatida keng qo‘llaniladi [8]. Ushbu tizim jamoat joylari, transport infratuzilmasi va strategik obyektlarda o‘rnatilgan CCTV kameralaridan kelayotgan video oqimlarni sun‘iy intellekt yordamida real vaqt rejimida tahlil qilishga asoslanadi.

Live Crime Intelligence tizimi shubhali xatti-harakatlarni avtomatik aniqlash, odamlar oqimidagi noodatiy harakatlarni belgilash va xavf yuzaga kelishi ehtimoli mavjud bo'lgan vaziyatlar bo'yicha tezkor ogohlantirishlar yuborish imkonini beradi. Ayniqsa, bu tizim terrorizm, ommaviy tartibsizliklar va zo'rvonlik bilan bog'liq jinoyatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Britaniyalik tadqiqotchi **Ben Bradford** real-time alerts tizimlarini jamoat xavfsizligini ta'minlashda "oldindan ogohlantirishga asoslangan nazorat modeli" sifatida tavsiflaydi. Uning fikricha, bunday tizimlar jinoyat sodir bo'lishidan oldin xavf belgilarini aniqlash orqali politsiya aralashuvini legitim va maqsadli qiladi. Shu bilan birga, u real-time kuzatuv va ogohlantirish tizimlari inson huquqlari va shaxsiy hayot daxlsizligi bilan muvozanatda bo'lishi zarurligini ham alohida ta'kidlaydi [9, B 1502-1503].

Buyuk Britaniyada olib borilgan ilmiy baholashlar shuni ko'rsatadiki, Live Crime Intelligence tizimi politsiyaning tezkorlik darajasini oshirgan, shuningdek, jamoat joylarida sodir etiladigan zo'rvonlik jinoyatlari xavfini kamaytirishga xizmat qilgan.

Skandinaviya davlatlaridan biri Niderlandiyada esa real-time alerts tizimi **Real-Time Public Safety Monitoring** konsepsiyasi asosida joriy etilgan bo'lib, u politsiya, mahalliy hokimiyat va boshqa davlat organlari o'rtasida uzviy axborot almashinuvini ta'minlashga qaratilgan. Ushbu tizim shahar infratuzilmasiga o'rnatilgan turli sensorlar, videokuzatuv vositalari va masofaviy qurilmalaridan kelib tushayotgan ma'lumotlarni GIS va sun'iy intellekt texnologiyalari bilan integratsiya qiladi [10].

Natijada real vaqt rejimida xavf darajasini aks ettiruvchi vizual "**risk dashboard**"lar shakllantiriladi. Bu panellar orqali muayyan hududdagi jinoyat xavfi, ijtimoiy beqarorlik belgilari va favqulodda vaziyatlar ehtimoli aniqlanadi hamda tegishli subyektlarga kriminologik signallar uzatiladi.

Niderlandiyalik olim **P.Ponsaers** real-time monitoring tizimlarini "ko'p subyektki xavfsizlik boshqaruvi modeli" sifatida baholaydi. Uning fikricha, real-time alerts nafaqat politsiya faoliyatini, balki mahalliy hokimiyatning ijtimoiy profilaktika choralarini ham aniq va maqsadli rejalashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan Niderlandiya modeli markazlashgan repressiv yondashuvdan ko'ra, hamkorlikka asoslangan profilaktik xavfsizlik konsepsiyasiga yaqinroq hisoblanadi [11, B 15].

Yuqorida keltirilgan rivojlangan davlatlarda joriy etilgan real vaqtda jinoyatlar haqida ogohlantirish tizimlarini mahalliy omillarni inobatda olib, jinoyatchilikka qarshi kurashishda qo'llanilsa, muayyan samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi.

**Real vaqtda jinoyatlar haqida ogohlantirish tizimlari** (Real-Time Crime Alert Systems) tizimining ishlashi 5 ta bosqichdan iborat.

**Birinchi bosqich** ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish bosqichi bo'lib, real-time alerts tizimining dastlabki va eng muhim bosqichi jinoyatchilikka oid ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ishdan iborat. Bu jarayonda turli manbalardan kelib tushayotgan axborotlar uzluksiz va kechiktirilmasdan qabul qilinadi. Bunday manbalarga 112 yoki 911 favqulodda qo'ng'iroqlari, shahar va jamoat joylarida o'rnatilgan CCTV va ANPR kameralar, ijtimoiy tarmoqlardagi ochiq axborotlar (matnli xabarlar, postlar, sharhlar), turli sensorlar va IT qurilmalar, shuningdek, patrul xizmatlari harakatini aks ettiruvchi GPS ma'lumotlari kiradi.

Ilmiy adabiyotlarda mazkur bosqich "**streaming data ingestion**" yoki "**event-driven data collection**" sifatida talqin qilinadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, ma'lumotlar an'anaviy statistik yig'im kabi ma'lum vaqt oralig'ida emas, balki hodisa sodir bo'lishi bilan bir vaqtda tizimga uzatiladi. Aynan shu xususiyat real-time alerts tizimining tezkorligi va samaradorligini ta'minlaydi.

O'zbekistonda mazkur bosqich uchun zarur bo'lgan texnik infratuzilma qisman shakllantirilgan. Jumladan, 112 yagona dispetcherlik xizmati faoliyat yuritmoqda, "Xavfsiz shahar" konsepsiyasi doirasida ko'plab hududlarda videokuzatuv va avtomobil raqamlarini aniqlash tizimlari joriy etilgan, patrul transport vositalari GPS monitoring bilan jihozlangan. Biroq, ushbu ma'lumotlar hozircha asosan monitoring va hodisani qayd etish maqsadida foydalanilmoqda. Ular real vaqt rejimida jinoyat xavfini prognozlash va avtomatik kriminologik signal shakllantirish uchun yetarli darajada integratsiya qilinmagan.

**Ikkinchi bosqich real vaqt rejimida sun'iy intellekt asosida tahlil qilish bo'lib**, ushbu bosqich tizimning intellektual yadrosi hisoblanib, yig'ilgan ma'lumotlar sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish algoritmlari yordamida real vaqt rejimida tahlil qilinadi. Mazkur jarayon jinoyat sodir bo'lish ehtimolini oldindan aniqlashga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlarda jinoyatchilikni real vaqt rejimida tahlil qilish uchun turli modellar qo'llaniladi. Xususan, LSTM va GRU kabi rekurrent neyron tarmoqlar jinoyatlarning vaqt bo'yicha takrorlanish qonuniyatlarini aniqlashda qo'llaniladi. CNN modellar videokuzatuv tasvirlari orqali shubhali xatti-harakatlarni aniqlash imkonini beradi. Graph Neural Networks hududlar o'rtasidagi jinoyat xavfining tarqalishini modellashtiradi, anomaly detection usullari esa odatiy holatdan keskin farq qiluvchi vaziyatlarni aniqlaydi.

Mazkur tahlil natijasida tizim jinoyat sodir bo'lishidan oldingi xavf belgilarini aniqlab, keyingi bosqichlar uchun asos yaratadi. Xorijiy tajribada bu jarayon real vaqt rejimida avtomatik tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekiston amaliyotida esa sun'iy intellekt texnologiyalari hozircha asosan yuzni tanish, avtomobil raqamlarini aniqlash va ayrim texnik vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan. Jinoyat xavfini real vaqt rejimida prognozlovchi va signal beruvchi AI modellar keng joriy etilmagan. Natijada AI tizimlari ko'proq aniqlovchi (detektiv) funksiyani bajarib, profilaktik prognozlash imkoniyatlaridan to'liq foydalanilmayapti.

**Uchinchi bosqich jinoyat xavfini baholash (risk scoring) sanalib**, ushbu bosqichda tizim aniqlangan hodisa yoki hudud bo'yicha jinoyat xavfini raqamli ko'rsatkich — risk balli ko'rinishida baholaydi. Ilmiy manbalarda bu jarayon “dynamic risk scoring” deb yuritiladi. Risk baholashda hududiy jinoyat zichligi, vaqt omili (sutkaning qaysi qismi, mavsum), ehtimoliy jinoyat turi, shuningdek, qayta sodir etilish yoki retsidiv ehtimoli hisobga olinadi. Mazkur bosqichning asosiy afzalligi shundaki, xavf darajasi statik emas, balki real vaqt rejimida o'zgarib boradi. Risk balli belgilangan chegaradan oshganda kriminologik signal faollashadi va tizim avtomatik ravishda ogohlantirish bosqichiga o'tadi.

O'zbekistonda jinoyat xavfini baholash asosan retrospektiv statistik tahlilga asoslanadi. Hududlarning kriminogen holati ko'pincha o'tgan davr ma'lumotlari asosida aniqlanadi va real vaqt rejimida yangilanmaydi. Shu sababli risk baholash statik xarakterga ega bo'lib, real-time alerts konsepsiyasiga mos kelmaydi.

**To'rtinchi bosqich kriminologik signal va ogohlantirishni shakllantirish deb nomlash mumkin.** Ushbu bosqichda real-time alerts tizimining markaziy elementi hisoblanadi. Chunki aynan shu bosqichda tahlil va risk baholash natijalari real harakatga undovchi signalga aylanadi. Tizim avtomatik ravishda xavf haqida tegishli subyektlarga ogohlantirish yuboradi. Bunday ogohlantirishlar mobil ilovalar orqali push-xabar, patrul xodimlarining planshetlari, situatsion markazlarning elektron panellari yoki avtomatik buyruqlar shaklida bo'lishi mumkin. Ilmiy yondashuvga ko'ra, signalning tezligi, aniqligi va manzilliligi uning samaradorligini belgilaydi. Noto'g'ri yoki kechikkan signal profilaktik ahamiyatni pasaytiradi.

O'zbekiston amaliyotida esa ogohlantirishlar asosan inson omiliga bog'liq holda, buyruq yoki ko'rsatmalar orqali amalga oshiriladi. Avtomatik kriminologik signal tizimi to'liq joriy etilmagan. Natijada real vaqt rejimida xavf haqida tezkor va manzilli ogohlantirish mexanizmi yetarli darajada shakllanmagan.

**Beshinchi bosqich qaror qabul qilish va tezkor javob bo'lib**, so'nggi bosqichda kriminologik signal asosida aniq choralar ko'riladi. Jumladan, patrul xizmatlarining yo'nalishi o'zgartiriladi, profilaktik nazorat kuchaytiriladi, zarur hollarda jamoatchilikka cheklangan formatda ogohlantirish beriladi. Bu bosqich real-time alerts tizimini reaktiv emas, balki proaktiv javob mexanizmiga aylantiradi.

Mamlakatimizda tezkor javob tizimi mavjud bo'lsa-da, u asosan sodir bo'lgan hodisalarga javob berishga yo'naltirilgan. Jinoyat xavfi oldindan prognoz qilinib, unga asoslangan tezkor choralar ko'rish amaliyoti hali keng rivojlanmagan. Tizim jinoyat xavfini past, o'rta va yuqori darajalarga ajratadi. Agar muqaddam sudlangan shaxslar ulushi, ishsizlik va oilaviy nizolar indikatorlari bir vaqtda keskin oshsa, tizim avtomatik ravishda “yuqori xavf” holatini qayd etadi.

Xavf darajasi belgilangan me'yordan oshganda tizim hududiy ichki ishlar bo'linmalari, prokuratura va profilaktika inspektorlariga real vaqt rejimida xabarnoma yuboradi. Bu qaror qabul qilish jarayonini tezlashtiradi.

Kriminologik signal tizimi jinoyatchilikka qarshi kurashda ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, sun'iy intellekt asosida tahlil qilish, dinamik risk baholash, avtomatik ogohlantirish va tezkor javob mexanizmlarini yagona tizimda birlashtiradi. O'zbekistonda mazkur tizimni joriy etish uchun texnik va institutsional asoslar mavjud bo'lsa-da, ularni real vaqt rejimidagi prognozlash va avtomatik kriminologik signal berish konsepsiyasi bilan integratsiya qilish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kriminologik signal tizimi jinoyatchilikka qarshi kurashda ilg'or, proaktiv va ilmiy asoslangan mexanizm hisoblanadi. Uning joriy etilishi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab beradi.

Kriminologik signal tizimi jinoyatchilikka qarshi kurashda yangi, proaktiv va ilmiy asoslangan yondashuvni ifodalaydi. Omillar reestri, sun'iy intellekt va real vaqt monitoringining integratsiyasi jinoyat xavfini erta aniqlash va samarali profilaktika choralarini ko'rish imkonini beradi.

Yuqoridagilar ko'ra, kriminologik signal tizimini joriy etish uchun quyidagilar tavsiya etiladi.

Birinchi, O'zbekistonda kriminologik signal tizimini joriy etish uchun jinoyatchilik bo'yicha barcha mavjud ma'lumotlarni (IIB, prokuratura, sud, tezkor xizmatlar) yagona raqamli platformaga integratsiya qilish zarur. Bu real vaqt rejimida ma'lumot almashinuvi va tezkor signal berishning asosiy sharti hisoblanadi.

Ikkinchi, jinoyatlarning fazoviy-vaqtinchalik tahliliga asoslangan analitik modullarni joriy etish lozim. "Hot spots" yondashuvi orqali xavfli hududlar va vaqt oralig'ini aniqlash profilaktika choralarini manzilli rejalashtirish imkonini beradi.

Uchinchi, sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish algoritmlariga asoslangan prognoz modellarini ishlab chiqish zarur. Bu jinoyat xavfini oldindan baholash va real-time alerts shakllantirish samaradorligini oshiradi.

To'rtinchi, kriminologik signal tizimining huquqiy asoslarini mustahkamlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish va algoritmik qarorlar ustidan nazorat mexanizmlarini belgilash muhimdir.

Beshinchi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun kriminologik tahlil, ma'lumotlar bilan ishlash va real-time monitoring bo'yicha maxsus malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish lozim.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Perry, W. L., McInnis, B., Price, C. C., Smith, S. C., & Hollywood, J. S. Predictive Policing: The Role of Crime Forecasting in Law Enforcement Operations. RAND Corporation Page 17 (2013).
2. <https://govinsider.asia/intl-en/article/how-singapore-is-reimagining-policing-with-smart-cars-and-drones-singapore-police-force>
3. <https://www.sciencedirect.com/science/article>
4. <https://www.ojp.gov/library/publications/real-time-crime-centers-integrating-technology-enhance-public-safety>
5. <https://www.ojp.gov/ncjrs/virtual-library/abstracts/intelligence-led-policing>
6. <https://www.policechiefmagazine.org/launch-successful-real-time-crime-center>
7. Sherman, L. W. va Weisburd, D. (1995). General deterrent effects of police patrol in crime "hot spots": A randomized, controlled trial. *Justice Quarterly*, 12(4), 625–626.
8. <https://www.met.police.uk/police-forces/metropolitan-police/areas/about-us/about-the-met/facial-recognition-technology>

9. Bradford, B., Yesberg, J. A., Jackson, J., & Dawson, P. (2020). Live Facial Recognition: Trust and Legitimacy as Predictors of Public Support For Police Use of New Technology. *British Journal of Criminology*, Volume 60, Issue 6, Pages 1502–1503.
10. <https://www.rathenau.nl/en/digitalisation/using-sensor-data-safety-and-quality-life>
11. Cools, M., De Ruyver, B., Easton, M., Pauwels, L., Ponsaers, P. et al. (2012). Social Conflicts, Citizens and Policing: Governance of Security. — Volume in the “Governance of Security Research Paper Series” page 15.

# ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF LAW RESEARCH

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000